

UDK: 372.894

8-SINF "O'ZBEKISTON TARIXI" DARSLIGIDA MAHALLIY TARIXIY MANBALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TIZIMI VA METODIK IMKONIYATLARI

Abdug'ofurova Robiya Xusanboy qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

E-mail: 1abdugofurovarobiya@gmail.com

Tel: +998 99 790 06 23

Ilmiy rahbar: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) R.Akbarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining "Amir Temur va Temuriylar davri" mavzularida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanish holati va ularning didaktik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Darslikda keltirilgan manbalar mazmuniy va metodik jihatdan tahlil qilinib, ularni o'qitishda muammoli ta'lim, qiyosiy tahlil, keys va matn sharhi kabi zamonaviy metodlarni qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari umumlashtirilib, o'quvchilarning manba bilan ishlash, tanqidiy fikrlash hamda tarixiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, Amir Temur va Temuriylar davri, mahalliy tarixiy manbalar, Temur tuzuklari, didaktik imkoniyatlar, tarixiy tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv.

ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА И МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕСТНЫХ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В УЧЕБНИКЕ «ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА» ДЛЯ 8 КЛАССА

Абдугафурова Робия Хусанбой кизи

Наманганский государственный педагогический институт

E-mail: 1abdugofurovarobiya@gmail.com

Тел.: +998 99 790 06 23

Аннотация: В данной статье исследуются состояние использования местных исторических источников и их дидактические возможности в темах «Амир Темур и эпоха Темуридов» учебника «История Узбекистана» для 8 класса. Источники, представленные в учебнике, проанализированы с содержательной и методической точек зрения, а также рассмотрены возможности применения современных методов обучения, таких как проблемное обучение, сравнительный анализ, кейс-метод и анализ исторического текста. По результатам исследования обобщены методические возможности использования местных исторических

источников и разработаны практические рекомендации, направленные на формирование у учащихся навыков работы с историческими источниками, критического мышления и исторических компетенций.

Ключевые слова: история Узбекистана, Амир Темура и эпоха Тимуридов, местные исторические источники, «Уложения Темура» (Темур тузуклари), дидактические возможности, историческое мышление, компетентностный подход.

DIDACTIC SYSTEM AND METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR USING LOCAL HISTORICAL SOURCES IN THE 8TH GRADE HISTORY OF UZBEKISTAN TEXTBOOK

Abdugofurova Robiya Khusanboy qizi

Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: 1abdugofurovarobiya@gmail.com

Tel.: +998 99 790 06 23

Abstract: This article examines the use of local historical sources and their didactic potential in the Amir Temur and the Timurid Period section of the 8th-grade History of Uzbekistan textbook. The historical sources included in the textbook are analyzed from both content-related and methodological perspectives, and the possibilities of applying modern teaching methods, including problem-based learning, comparative analysis, case study, and historical text analysis, are discussed. Based on the findings, the methodological opportunities for using local historical sources are systematized, and practical recommendations are proposed to develop students' source analysis skills, critical thinking, and historical competencies.

Keywords: History of Uzbekistan, Amir Temur and the Timurid Period, local historical sources, Temur Tuzuklari (The Code of Temur), didactic opportunities, historical thinking, competency-based approach.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim siyosatida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini o'stirish, ularda amaliy kompetensiyalarni shakllantirish alohida o'rin tutadi. Tarix ta'limida ushbu maqsadlarga erishishning eng samarali omillaridan biri bu – dars jarayonida tarixiy manbalardan, xususan, mahalliy manbalardan tizimli foydalanishdir. Amir Temur va Temuriylar davri O'zbekiston

davlatchiligi va madaniyati tarixida tub burilish bosqichi bo'lib, ushbu davrni o'rganishda boy mahalliy yozma manbalar asosiy ko'priki vazifasini o'taydi.

8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining "Amir Temur va Temuriylar davri" bo'limida davrning buyuk tarixchilari, davlat arboblari hamda mutafakkirlarining asarlaridan keng foydalanilgan. Biroq ta'lim amaliyotida ushbu manbalardan faqatgina tayyor axborot manbayi sifatida foydalanish holatlari ustunlik qilmoqda. Shu bois, mahalliy tarixiy manbalarni o'quvchilarning faol bilish faoliyatini tashkil etuvchi didaktik vositaga aylantirish hamda ularning metodik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bugungi tarix metodikasi fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarix ta'limida birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash masalasi jahon hamda mahalliy tarix metodikasi ilmidakeng tadqiq etilgan. Xususan, S. Vinburg (S. Wineburg), P. Seyshas (P. Seixas), K. Barton (K. C. Barton), L. Levstik (L. S. Levstik), S. Levek (S. Lévesque) va B. VanSledrayt (B. A. VanSledright) kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida manba bilan ishlash — o'quvchilarda tarixiy tafakkur (historical thinking), dalillar ustida ishlash hamda o'tmishni tanqidiy idrok etishni shakllantirishning asosiy omili sifatida baholanadi.

Mahalliy amaliyotda esa Y. Toshpo'latov, Ya. G'afforov kabi olimlarning tadqiqotlarida tarixni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv hamda manbalardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Mazkur tadqiqotda 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligi materiallarini mazmuniy-didaktik tahlil qilish, qiyosiy-metodik tahlil hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Darslik tahlili shuni ko'rsatdiki, mahalliy tarixiy manbalar mazmunan boy bo'lishiga qaramay, ularning didaktik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmagan. Aksariyat hollarda manbalar dars matnini to'ldiruvchi qo'shimcha material sifatida berilgan bo'lib, ularni tahlil qilish, qiyoslash va tarixiy xulosa chiqarishga yo'naltirilgan

topshiriqlar kam uchraydi. Natijada o'quvchilarning manba bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati to'liq namoyon bo'lmaydi.

Mahalliy tarixiy manbalardan samarali foydalanish, avvalo, ularning mazmuni va didaktik vazifasiga mos metodlarni tanlashni talab etadi. Masalan, "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi, harbiy tartib va ijtimoiy munosabatlarni yoritishda muhim manba bo'lgani sababli undan muammoli savollar, sabab-oqibat tahlili va konseptual jadval metodlari asosida foydalanish maqsadga muvofiqlikni ko'rsatadi. Bu o'quvchilarga Amir Temur davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy asarlaridan foydalanishda tarixiy voqealarni qiyosiy tahlil qilish, tarixiy shaxs faoliyatiga baho berish hamda mualliflarning voqealarni yoritish uslubini aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar samarali hisoblanadi. Ayniqsa, darslik matni bilan tarixiy manba matnini taqqoslash o'quvchilarning tarixiy axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlaridan foydalanishda esa tarixiy voqealar bilan bir qatorda Temuriylar davrining ilmiy va madaniy muhiti ham yoritilishi lozim. Bunday manbalar asosida o'quvchilar tarixiy jarayonlarning faqat siyosiy emas, balki madaniy va ma'naviy jihatlarini ham anglaydilar.

Tahlillar asosida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari va shakllantiriladigan kompetensiyalar quyidagicha umumlashtirildi.

1-jadval

Mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari:

Tarixiy manba	Qo'llash mumkin bo'lgan mavzular	Tavsiya etiladigan metod	Shakllantiriladigan kompetensiya
---------------	----------------------------------	--------------------------	----------------------------------

Temur tuzuklari	Davlat boshqaruvi, harbiy tizim	Muammoli savollar, sabab – oqibat tahlili	Tahlil qilish, baholash
Nizomiddin Shomiy	Amir Temurning siyosiy faoliyati	Tarixiy matn tahlili	Tarixiy tafakkur
Sharafuddin Ali Yazdiy	Harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar	Qiyosiy tahlil	Dalillarga asoslangan xulosa chiqarish
Ahmad Fasih Xavofiy	XIV asr oxiri siyosiy voqealari	Keys tahlili	Tarixiy jarayonlarni izohlash
Alisher Navoiy	Temuriylar davri madaniyati	Matn sharhi, munozara	Madaniy merosni anglash
Sultonali Mashhadiy	Ilm-fan va ma'naviyat	Guruhli muhokama	Kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar

Taklif etilgan metodik yondashuv tarixiy manbalarni o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etuvchi didaktik vositaga aylantirish imkonini beradi. Bunda o'quvchilar tarixiy manbani o'qish bilan cheklanmay, uning mazmunini tahlil qiladi, boshqa manbalar bilan taqqoslaydi, muallif pozitsiyasini aniqlaydi hamda tarixiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi. Shu tariqa tarixiy manbalar tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligidagi "Amir Temur va Temuriylar davri" mavzularida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatdi. Darslikda Temur tuzuklari, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy

asarlardan foydalanilishi o'quvchilarga tarixiy voqealarni birlamchi manbalar asosida o'rganish imkonini yaratadi. Bu esa tarixiy bilimlarning ishonchliligini ta'minlash bilan bir qatorda, tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun ham muhim didaktik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, darslikda tarixiy manbalar mazmun jihatidan to'g'ri tanlangan bo'lsa-da, ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada rivojlantirilmagan. Manbalar asosan o'qish uchun berilgan bo'lib, ularni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, tarixiy dalillarni qiyoslash va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar cheklangan. Natijada tarixiy manbalarning ta'limiy salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi.

Mahalliy tarixiy manbalarni didaktik funksiyalariga ko'ra tasniflash ularni dars jarayonida maqsadli qo'llash imkonini beradi. Xususan, Temur tuzuklari davlat boshqaruvi va siyosiy qarashlarni o'rganishda, Shomiy hamda Yazdiy asarlari tarixiy voqealarni tahlil qilish va tarixiy shaxs faoliyatini baholashda, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlari esa Temuriylar davri madaniyati va ma'naviy hayotini yoritishda samarali didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodik yondashuv tarixiy manbalarni o'quvchilarning faol bilish faoliyatiga yo'naltirish, tarixiy dalillar bilan ishlash, qiyosiy tahlil o'tkazish hamda asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur tavsiyalar tarix fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish talablariga mos keladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligidagi "Amir Temur va Temuriylar davri" mavzularida foydalanilgan mahalliy tarixiy manbalar didaktik jihatdan tahlil qilindi. Aniqlanishicha, darslikda Temur tuzuklari, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlari asosiy mahalliy tarixiy manbalar sifatida qo'llanilgan bo'lib, ular davlat

boshqaruvi, siyosiy jarayonlar, harbiy yurishlar, ilm-fan va madaniyat tarixini yoritishda muhim o'rin egallaydi.

Tahlillar tarixiy manbalarning didaktik salohiyati yuqori ekanini, biroq ularning imkoniyatlaridan dars jarayonida to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatdi. Shu asosda tarixiy manbalarni didaktik funksiyalariga ko'ra tasniflash hamda ularni muammoli ta'lim, tarixiy matn tahlili, qiyosiy tahlil, keys metodi va munozara orqali o'qitishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Taklif etilgan metodik yondashuv o'quvchilarning tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodik tavsiyalarni O'zbekiston tarixi fanining boshqa mavzularini o'qitishda ham qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. O'zbekiston tarixi (XIII–XV asrlar): 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Mas'ul muharrir: B. Eshpo'latov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.
5. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. J. II, Q.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 632 b.
6. Ahmad Fasih Xavofiy. Mujmali Fasihiy (o'zbek tilidagi nashri). – Toshkent: Fan, 1980.
7. Alisher Navoiy. Xamsa. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Klavixo R. G. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406) / Rus tilidan tarjima. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.